



THE IMPACT OF THE PROBLEM OF TERRORISM AND EXTREMISM ON THE SECURITY OF AFGHANISTAN AND PAKISTAN

Sardor Rahimov

1st-year Master's student

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: ISIS-Khorasan, Durand Line, Deobandism, Haqqani Network, Al-Zulfiqar, Tehreek-e-Taliban Pakistan (Pakistani Taliban), strategic depth, Pashtunwali, “hammer” and “anvil” strategy, Taliban syndrome (Pakistani Talibanization), East Turkestan Islamic Movement, Turkestan Islamic Movement, Uzbekistan Islamic Movement, Jaysh al-Adl, Balochistan Liberation Army.

Received: 08.08.25

Accepted: 09.08.25

Published: 10.08.25

Abstract: This article discusses the problem of terrorism and extremism, focusing on its impact on global and regional security, particularly the security of Afghanistan and Pakistan. The activities of terrorist-extremist groups settled in the "Durand Line" region are described in detail. Additionally, the article covers Deobandism and its origins, the formation of the "Taliban" movement, as well as the role and position of major actors such as the USA and China in the regional fight against terrorism.

TERRORIZM VA EKSTREMIZM MUAMMOSINING AFG‘ONISTON VA POKISTON XAVFSIZLIGIGA TA’SIRI

Sardor Rahimov

1-kurs magistranti

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: ISHID-Xuroson, Dyurand chizig‘i, deobandiylik, Haqqoniy tarmog‘i, Al-Zulfiqor, Tehreek-e Tolibon Pokiston” (Pokiston Toliboni), strategik chuqurlik, Pashtunvaliy, “bolg‘a” va “sandon” strategiyasi, Tolibon sindromi (Pokiston tolibonlashuvi), Sharqiy Turkiston islomiy harakati, Turkiston islom harakati,

Annotatsiya: Ushbu maqolada terrorizm va ekstremizm muammosi, uning global va mintaqaviy xavfsizlikka, xususan, Afg‘oniston va Pokiston xavfsizligiga ta’siri to‘g‘risida atroflicha so‘z yuritiladi. “Dyurand chizig‘i” hududida qo‘nim topgan terroristik-ekstremistik guruhlar faoliyati batafsil yoritiladi. Shuningdek, mazkur maqolada deobandiylik va uni kelib chiqishi, “Tolibon”

O'zbekiston islomiy harakati, Jaysh al-Adl, Balujiston ozodlik armiyasi.

harakatini shakllanishi, qolaversa, AQSh va Xitoy kabi yirik aktorlarning mintaqadagi terrorizmga qarshi kurashdagi o'рни va roli haqida bayon etiladi.

ВЛИЯНИЕ ПРОБЛЕМЫ ТЕРРОРИЗМА И ЭКСТРЕМИЗМА НА БЕЗОПАСНОСТЬ АФГАНИСТАНА И ПАКИСТАНА

Сардор Рахимов

Студент магистратуры I-го курса

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: ИГИЛ-Хорасан, Линия Дюранда, деобандизм, сеть Хаккани, Аль-Зульфикар, Техрик-е-Талибан Пакистан (пакистанские талибы), стратегическая глубина, паштунвали, стратегия «молот» и «наковальня», синдром Талибана (пакистанизация Талибана), Восточно-Туркестанское исламское движение, Туркестанское исламское движение, Исламское движение Узбекистана, Джейш аль-Адл, Армия освобождения Белуджистана.

Аннотация: В данной статье рассматривается проблема терроризма и экстремизма, их влияние на глобальную и региональную безопасность, в частности на безопасность Афганистана и Пакистана. Подробно освещается деятельность террористическо-экстремистских групп, расположившихся на территории «Линии Дюранда». Также в статье рассматриваются деобандизм и его происхождение, формирование движения «Талибан», а также роль и место таких крупных акторов, как США и Китай, в борьбе с терроризмом в регионе.

Kirish

Asrimizning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lgan xalqaro terrorizm va diniy-ekstremizm dunyoning turli mintaqalarida siyosiy beqarorlik va qurolli to'qnashuvlar kabi qator muammolarga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, Afg'oniston va Pokiston kabi davlatlar terrorchilik va ekstremistik faoliyatlar uchun nafaqat geografik, balki siyosiy va ijtimoiy jihatdan ham qulay hududga aylangan. Ushbu ikki mamlakatda uzoq yillar davom etgan ichki nizolar, zaif markaziy hokimiyat, qurollangan guruhlarining keng tarmog'i va tashqi kuchlarning aralashuvi natijasida terrorizm xavfi global miqyosda xavotir uyg'otadigan darajaga yetdi. Xususan, "Al-Qoida", IShID ("Iroq va Shom islom davlati" hozirgi kunda "Islomiy davlat" deb yuritiladi, shuningdek, arab tilida "DAISh" deb ham nomlanadi) va uning "Xuroson bo'limi" (IShID-Xuroson) kabi terroristik guruhlarining mintaqadagi faoliyati Afg'oniston va Pokiston xavfsizligiga bevosita va bilvosita tahdid solmoqda.

Terrorizm va ekstremizm bu ikki davlatda faqatgina xavfsizlikka emas, balki siyosiy barqarorlik, iqtisodiy taraqqiyot va ijtimoiy farovonlikni ham izdan chiqaradi. Ikki mamlakat o'rtasidagi ishonchsizlik, chegaraviy nizolar va madaniy-siyosiy qarama-qarshiliklar ekstremistik

g'oyalarning ildiz otishiga qulay muhit yaratmoqda. Ayniqsa, "Dyurand chizig'i" atrofidagi nizolar, Pokistondagi qabilaviy hududlar va Afg'onistonning uzoq yillik urushlardan charchagan aholisi orasida radikal qarashlarning keng tarqalishiga sabab bo'ldi.

Pokiston-Afg'oniston chegarasida xavfsizlikni ta'minlash qiyin bo'lgani va mazkur hududda hukumat qonunlari samarali ishlamagani sababli huquqiy nazoratdan chetda qolgan bu mintaqa Pokistonning boshqa hududlaridan kelgan qonunbuzarlar uchun qulay boshpanaga aylangan. Bu yerda ekstremist va terroristlar, politsiya tomonidan qidirilayotgan jinoyatchilar, shuningdek, Afg'oniston chegarasidan o'tgan jangarilar ham yashirinmoqda[1]. Chunonchi, shunday jangarilardan ma'lum qismi qo'nim topgan Federal ma'muriy qabilalar hududi Afg'oniston bilan chegaradosh bo'lgan 7 ta qabilaviy agentlikdan iborat. Afg'oniston ham, pashtun qabilalari ham "Dyurand chizig'i" chegarasini hech qachon tan olishmagan, uni sun'iy tashkil etilgan, deb atashgan va hozirgi Pokiston hududidagi yerlar Afg'onistonga tegishli ekanligini da'vo qilishadi[2]. Shu bois Afg'oniston tomonidan turib, "Dyurand chizig'i" atroflarida yoki Pokiston hududida joylashgan ekstremistik va terroristik guruhlarini turli ko'rinishda qo'llab-quvvatlash holatlari hamon uchramoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Deobandiylilik, uning tarixi va hududlarga yoyilishi haqida mahalliy olimlardan Inomjon Boboqulov "Afg'oniston: lug'at-ma'lumotnoma" nomli kitobida, Suhrob Bo'ronov "Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligiga "Tolibon" omilining ta'siri" va Obidjon Abdurahmonov "Afg'oniston davlat va jamiyat boshqaruvida pushtunlar" nomli monografiyalarida batafsil bayon etishadi. Shuhrat G'oyibnazarov esa "Islom terrorizmga qarshi" nomli kitobida IShID, uning bo'linmasi hisoblanuvchi IShID-Xuroson bo'yicha qimmatli ma'lumotlar bilan birga statistikaga asoslangan fikr-mulohazalarini ham keltiradi.

"Geografiya mahkumlari" kitobi muallifi Tim Marshall "Tolibon" harakati shakllanishi, "toliblar"ni Kobulda hokimiyatni egallashi hamda mazkur jarayonda Islomobodning bilvosita ishtiroki, AQShning ushbu mintaqadagi siyosati yuzasidan o'zining ilmiy tahlillarini yozadi. Ashok Behuriyaning "Tehrik-e Tolibon Pokiston: ibtido, rivojlanish va kelajakka bashoratlar" nomli kitobida terrorizm va ekstremizm muammosining Afg'oniston va Pokiston xavfsizligiga ta'siri, ayniqsa, "Pokiston Toliboni" nomi bilan ataluvchi Tehrek-e Tolibon Pokiston to'g'risida mufassal ma'lumot beriladi. Peter Chalk muharrirligida nashr etilgan Terrorizm ensiklopediyasida esa terrorizm tushunchasi, uning kelib chiqish ildizlari, shakllanishi, turlari va tasnifi, umuman olganda, terrorizmga doir deyarli barcha atama va iboralar keltirilganligini alohida qayd etish joizdir.

Muhokama

Afgʻonistonda yaqin vaqtgacha oliy diniy muassasa maqomiga ega madrasalar boʻlmagan. Shuning uchun oliy taʼlim olishga intilayotgan afgʻon yoshlarining katta qismi asosan Pokiston va Eronga, ozroq boʻlsa-da arab davlatlariga sayohat qilgan. Pokistonda taʼlim olganlar aksariyat madarasalarda hukmronlik qiladigan Deobandiy diniy maktabining qadriyatlari va qarashlarini aks ettiruvchi mustahkam dunyoqarash bilan vataniga qaytgan. Deobandiylik Janubiy va Janubi-gʻarbiy Osiyoda chuqur ildizlarga ega boʻlib, islomdagi keskin oqimlardan biri sifatida tanilgan. “Tolibon”ning koʻplab arboblari va tarafdorlari ushbu madrasalarning bitiruvchilari hisoblanadi[3]. Shu oʻrinda deobandiylik haqida muxtasar toʻxtalib oʻtish lozim.

Deobandiylik (deobandizm) – Deobandiylik hadislar va hanafiy mazhabining taʼlimoti hamda huquqiy anʼanalariga tayanadi. Mazkur harakat asoslarining yaratilishi 1866-1867-yillarda Deoband shahrida tashkil etilgan “Dor ul-ilm” (“Ilm uyi”) madrasasi faoliyati bilan bevosita bogʻliq. Asoschilari sifatida Muhammad Qosim Nanatavi va Rashid Ahmad Gangohining nomlari keltiriladi. Deobandiylik musulmon hukmdor boʻlmagan mustamlaka davlatda musulmon jamiyatini isloh qilish va birlashtirishni koʻzlagan. Harakat tarafdorlari “Hindiston ulamolari jamiyati” (1919) va “Islom ulamolari jamiyati” (1941)ni tuzishda faol ishtirok etishgan. Deobandiy madrasalar uning gʻoyalarini Janubiy Osiyo, xususan, Afgʻoniston boʻylab keng yoyilishida muhim rol oʻynagan. 1879-yilda Hindistonda jami 12 ta deobandiy madrasalari mavjud boʻlgan boʻlsa, XX asrning 60-yillariga kelib ularning soni Janubiy Osiyoda 9000 taga yetgan[4]. Pokiston davlati tashkil topgandan soʻng, deobandiylar anʼanaviy diniy taʼlim tizimi ustidan nazoratni kengaytirdilar. Jihod har doim deobandiy tafakkurining asosini tashkil etgan va Deobandiy ulamolari XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Britaniya hukmronligiga qarshi harbiy harakatlarda faol ishtirok etib, ularga ilhom berganlar[5]. Dastlab mustamlakachilikka qarshi ozodlik kurashi fonida vujudga kelgan mazkur harakat keyinchalik keng yoyilib, Afgʻoniston va Pokistonda aholiga, xossatan, yosh avlodga diniy taʼlim berishda katta taʼsir oʻtkazdi.

Afgʻoniston amiri Abdurahmon va Amir (keyinchalik qirol boʻlgan) Omonullaxon mamlakat hududida deobandiy madrasalarini ochilishini taqiqlagan. Hatto Qirol Omonullaxon ushbu madrasalar bitiruvchilarini “sotqinlar va chet el targʻibotchilari” deb atagan[4]. Haqiqatan ham, XIX asr oxirida Amir Abdurahmon diniy ishlarga qatʼiy davlat nazoratini oʻrnatdi. U diniy taʼlim beruvchi oʻqituvchilarni sinovdan oʻtkazish, davlat tomonidan tayinlangan qozilarni belgilash va anʼanaviy madrasalarning mustaqilligini cheklash kabi choralarni koʻrdi. Jumladan, Amir ulamolarga davlat mablagʻlarini olish uchun maxsus imtihonlardan oʻtishni shart qilib qoʻydi va mahalliy diniy hokimiyatni Kobul amaldorlariga boʻysundirdi. Bu harakatlar chet ellik diniy ulamolarni, ayniqsa, Afgʻonistondan tashqarida taʼlim olganlarni bostirish maqsadida amalga

oshirildi, chunki Amir ularni o'z hokimiyatiga ehtimoliy raqib deb hisoblardi. Qirol Omonullaxon esa dunyoviy maktablarni jadal sur'atda kengaytirdi. Masalan, 1904-yilda ochilgan Habibiya kolleji ingliz tili va geografiya fanlarini o'qita boshlagan bo'lib, bu jarayon uning hukmronligi davrida, 1920-yillarda yanada tezlashdi[6]. Sirasini aytganda, o'sha davrda Qirol Omonullaxon va uning siyosatiga nisbatan konservativ dindorlar orasida norozilik kayfiyati kuchaygan edi.

Shunga qaramasdan, XX asrning 30-yillariga kelib mamlakatda bir necha madrasalar paydo bo'lgan. 1947-yildan keyin ushbu maktab qarashlari va amaliyoti, ayniqsa, pashtun hududlarida keng tarqalgan. Shuningdek, mavlono Fazlur Rahmon va Samiul Haqning "Islom ulamolari jamiyati" sa'y-harakati bilan asosiy deobandiy madrasalar mustaqil qabilalar hududida tashkil topgan. Shubhasiz, ularning eng mashhuri va yirigi Xaybar-Paxtunxva viloyatining Akora Xattak shahridagi Samiul Haqning "Dor ul-ilm Haqqoniya" madrasasi hisoblanadi. Afg'on mujohidlarining yetakchi vakillari Yunus Xolis, Muhammad Nabi Muhammadiy, Jaloliddin Haqqoniy va boshqalar mazkur madrasa bitiruvchilari hisoblanadi[4]. Pokistonning boshqa viloyatlaridan ham ushbu harakatning yangi a'zolari bor edi. Ular chegara hududlaridagi Deobandiy madrasalarini tamomlagan edilar. Pokiston maxfiy xizmat ma'lumotlariga ko'ra, afg'on jihodi (Sovet bosqini) mobaynida taxminan 500 ming nafar yosh yigit "islomiy jihod" g'oyalari bilan tarbiyalangan. Ularning aksariyati Shimoli-g'arbiy chegara viloyati va Federal ma'muriy qabilalar hududidan kelgan pashtunlar bo'lib, qisman Pokistonning boshqa mintaqalaridan ham kelganlar bor edi[1]. Darhaqiqat, urush yillarida (1979-1989) ham afg'on qishloq ulamolari, ayniqsa, Afg'onistonning janubiy hududlarida, urush markazlaridan uzoqda joylashgan o'z qishloq madrasalarida yoki Pokistondagi konservativ Deobandiy harakati bilan bog'liq bo'lgan o'xshash (va ancha yirikroq) muassasalarda ta'lim berish yoki o'qishni davom ettirdilar. Minglab pashtun qochqin o'g'il bolalari Pokiston yoki Saudiya xayriya tashkilotlari tomonidan moliyalashtiriladigan ana shu maktablarda mavjud bo'lgan yagona ta'limni olishdi[7]. Mazkur madrasalarda tahsil olgan "toliblar" keyinchalik Afg'onistonda hokimiyatni egallaganda (1996) ularning hokimiyatini rasman tan olgan davlatlar (3 ta) qatorida ham aynan Saudiya Arabistoni Podshohligi va Pokiston Islom Respublikasi bor edi (uchinchisi – Birlashgan Arab Amirliklari).

Ma'lumotlarda keltirilishicha, 1999-yilda "Tolibon" hukumatining 8 nafar vaziri, o'nlab gubernatorlari, qozilari va harbiy qo'mondonlar "Haqqoniya" madrasalarining bitiruvchilari bo'lishgan. O'n yillar davomida afg'on qochoqlariga bepul ta'lim, oziq-ovqat va boshpana taqdim qilgan ushbu madrasalar, ular uchun muhim ta'lim maskani vazifasini ham o'tagan. Aynan ularning talabalari (toliblar) 80-yillarda mujohidlar uchun, 90-yillarda "Tolibon" harakati uchun muhim inson resursi bo'lib xizmat qilgan. Vaholanki, ushbu madrasalar asosan qishloq joylarida faoliyat yuritgan. Ularda deobandiylikning asl maqsadlaridan bexabar, yetarli bilim va ko'nikmaga

ega bo'lmagan mullalar dars berib kelgan. Deobandiylik "Tolibon" harakatining mafkuraviy asosini tashkil etadi. Shunga qaramay, e'tiqodiy jihatdan musulmon dunyosida "toliblar"ning dinga yondashuvi va talqinini qiyosi kam. "Tolibon" – deb yozadi Ahmed Rashid, – o'zinikidan o'zga islomni tan olmagan". XX asrning 80-yillarida saudiya arabistonilik va quvaytlik ko'ngillilar hamda afg'on mujohidlari faoliyati deobandiylikda salafiylik g'oyalari ta'sirini kuchayishiga xizmat qildi[4]. Siyosiy tahlilchi Husayn Haqqoniyni fikricha, so'nggi yillarda Deobandiy ulamolar jihodni muqaddas huquq va burch sifatida talqin qilib, izdoshlarini har qanday mamlakatga borib, o'sha yerdagi musulmonlarni himoya qilish uchun jihod olib borishga da'vat etmoqdalar[5].

Afg'onshunos olim A.Haydarov deobandiylik haqida tahliliy fikrlarini quyidagicha bayon etadi: "Toliblar"ning ko'plab rahbarlari Pokistondagi Deobandiy maktab tizimining asosiy qismi bo'lgan "Dor-ul Ulum" Haqqoniya madrasasining bitiruvchilari hisoblanadi. Ushbu maktabning asosiy konsepsiyasi shariat qonunlari asosida islom dinini qayta tiklash va har qanday yangiliklardan tozalash hamda yagona islom davlatini barpo etishdan iborat. Aynan shu Deobandiy maktabining asosiy qoidalari "Tolibon" mafkurasining asosini tashkil etgan, ammo Afg'oniston sharoitiga moslashgan va hukmron etnik guruh – pashtunlar manfaatlariga javob bergan[8]. Darhaqiqat, "toliblar"ning avvalgi (1996-2001-yillar) va amaldagi (2021-yildan to hozirgi kungacha) boshqaruvini tahlil qilinsa, ularning har ikkala hukumati asosan pashtunlardan tashkil topganini kuzatish mumkin. Bu esa "Tolibon" o'z siyosatida nafaqat diniy, balki etnik omilga ham urg'u berishini anglatadi.

Pokistonlik olim Fotima Idrisning qayd etishicha, Pokiston Afg'onistonga Sovet bosqini davrida Afg'onistondagi kommunistik rejim va Sovet kuchlariga qarshi urush olib boradigan mujohidlar uchun asosiy mashg'ulot maydoni vazifasini bajargan. U yerda tayyorlanib, har kuni Afg'onistonga kirish uchun "Dyurand chizig'i"ni kesib o'tadigan 25 000 xorijiy mujohidlar safida turli mamlakatlardan kelgan jangchilar bor edi. Ularning aksariyati mahalliy ayollarga uylanib, Pokistonda doimiy yashab qolishgan[9]. Darhaqiqat, ushbu davrda Pokistonning Federal ma'muriy qabilalar hududidan shimoliy Balujistongacha cho'zilgan "qabilalar kamari" Afg'onistondan kelgan qochqinlar va mujohidlar uchun "tabiiy boshpana" vazifasini o'tadi[1], deb yozadi "Tehrik-e Tolibon Pokiston: ibtido, rivojlanish va kelajakka bashoratlar" kitobi muallifi Ashok Behuriya. Uning tahlillariga ko'ra, 1980-yillarda AQShning Pokiston maxfiy xizmati bilan hamkorlikda olib borgan ijtimoiy-siyosiy "muhandisligi mahsuli" o'laroq bu hududda madrasalar miqdori ko'payib ketdi. Mazkur madrasalar Afg'onistondagi kommunistik kuchlarga qarshi kurashayotgan islomiy mujohidlar safini to'ldirish uchun jangarilar tayyorlardi. Pokistonning ushbu hududidagi pashtunlar ham mujohidlar safiga qo'shib, Afg'onistondagi kommunistlarga qarshi jang qildilar[1].

Ta'kidlash joizki, Pokistonning Afg'oniston bilan munosabatlari 1970-yilda Pokiston "Haqqoniy tarmog'i" va Afg'oniston hukumatiga qarshi faoliyat yuritayotgan boshqa guruhlarini qo'llab-quvvatlaganda murakkablasha boshladi. Bu xususida pokistonlik olim Fotima Idrisni yozishicha, Sovet Ittifoqi Afg'onistonga bostirib kirgandan so'ng, AQSh Sovet Ittifoqiga qarshi turish va mintaqada o'z manfaatlarini yoyish maqsadida Pokiston bilan hamkorlik qildi. Bunga javoban Afg'oniston Demokratik Respublikasi, SSSR va Hindiston razvedka xizmatlari "Al-Zulfiqor" terroristik guruhini qo'llab-quvvatladilar. "Al-Zulfiqor" sobiq Bosh vazir Zulfiqor Ali Bxuttoning o'g'li (Murtazo Bhutto) tomonidan (1979-yilda) tashkil etilgan terrorchi guruh bo'lib, u Zulfiqorni qatl etilishiga javobgar bo'lgan harbiy rejim (o'zini Pokiston Prezidenti deb e'lon qilgan Muhammad Ziyu ul-Haq)ni ag'darishni maqsad qilgan edi. "Al-Zulfiqor" guruhi katta ta'sirga ega faoliyat olib bormagan. Ular Pokiston xalqaro aviakompaniyasi samolyotini olib qochadi, ammo bundan keyingi davrda boshqa bunday hujumlar uyushtirmaydi[9]. 1980-yillarda ko'plab afg'onlar Sovet istilosidan qochish va Pokistonda boshpana topish uchun "Dyurand chizig'i"ni kesib o'tdilar. 1988-yilda esa AQSh Davlat departamenti Afg'onistonning maxfiy razvedka xizmatini 1987 va 1988-yillarda Pokistonda xalqaro hamjamiyatning Birlashgan Millatlar Tashkilotining qochqinlar bo'yicha oliy komissari orqali yo'naltirilgan mablag'lari hisobidan terrorchilik hujumlarini uyushtirganlikda ayblagan. Pokistondagi qochqinlar lagerlariga joylashtirilgan qochqinlar maktablarda emas, madrasalarda tahsil olishgan va "Tolibon" harakatining bir qismiga aylanishi uchun o'qitilgan[9]. Binobarin, Pokiston va "Tolibon" o'rtasida o'ziga xos rishtalar mavjud hamda "Toliblar"ning aksari Shimoli-g'arbiy chegara viloyatidagi pashtunlar bilan bir xil etnik guruhga mansubligi tufayli ular hech qachon o'zlarini ikki xalq deb bilishmagan. Ular o'rtadagi chegarani asli G'arbning "ixtirosi" sifatida talqin qilishadi[10], deb yozadi Tim Marshall.

Pokistonlik olim Safdar Hussayn o'z tahliliy fikr-mulohazalarini quyidagicha bayon etadi: "Tolibon"ga qurol-yarog' va moliyaviy yordam bergan ham, ularni tayyorlagan ham aynan Pokiston edi. 1996-yilda Islomobodning maqsadlaridan biri ro'yobga chiqdi: u "strategik chuqurlik" deb atalgan holatga erishdi va "Tolibon" Afg'onistonning katta qismini o'z nazoratiga oldi. "Tolibon" hukumatini (Pokistondan tashqari) Saudiya Arabistoni Podshohligi va Birlashgan Arab Amirliklari kabi arab monarxiyalari ham tan oldi. Shunga qaramay, "Tolibon" Pokistonning xavfsizlik bilan bog'liq xavotirlarini bartaraf etish o'rniga uni yanada alanga oldirdi. "Tolibon" hukumatga kelganidan so'ng tez orada u hech kimning "qo'g'irchog'i" emasligini ko'rsatdi: ular Islomobodga o'zi xohlagan "strategik chuqurlik"ni ta'minlamadi, aksincha, yangi strategik muammoga aylandi. "Tolibon" Pokiston tomonidan berilgan ogohlantirishlarga qaramay Usoma bin Lodinga boshpana berdi. Bu esa global terrorizm o'choqlaridan birini ikki davlat ostonasiga

olib keldi. Pokiston “Tolibon”ga “Dyurand chizig’i”ni tan olishni taklif qilganida ham, ular musulmonlarning chegaralari yo‘qligini aytib, bu taklifni rad etishdi[11].

Sovet qo‘shinlari Afg‘onistondan chiqib ketganidan so‘ng (1989), Pokiston hududidagi mujohidlar haqida ularning Pokistondagi mazhabiy mojarolarga va Kashmirdagi jangarilikka aralashuvi taxminlaridan tashqari, boshqa ma’lumotlar deyarli yo‘q edi. Vaholanki, 1994-yilda “Tolibon”ning paydo bo‘lishi vaziyatni o‘zgartirdi. Pokistondagi diniy madrasalarning talabalari Afg‘onistonga oqib kelib, “Tolibon” harakatiga qo‘shila boshladi. Dastlab Zohirshohni taklif etib, monarxiya tuzumini tiklashni maqsad qilgan “Tolibon” harakati tez orada Usoma bin Lodin bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ydi. U badavlat saudiyalik bo‘lib, mutaassib vahhobiylik oqimi tarafdori va “Al-Qoida” terroristik tashkilotining asoschisi edi[1]. “Toliblar”ning mazkur hamkorligi keyinchalik Afg‘oniston siyosatida tub burilish yasadi va mintaqa xavfsizligiga yangi tahdidlarni vujudga keltirdi. Bu haqida afg‘onshunos olim Obidjon Abdurahmonov quyidagi tahlillarini keltiradi:

Pashtunlarning yozilmagan qonun-qoidalar majmui (axloq-odob kodeksi) hisoblangan “Pashtunvaliy”ning ba’zi tamoyillaridan pashtunlar tomonidan hokimiyat uchun asos sifatida foydalangani afg‘on jamiyatiga o‘z salbiy ta’sirini o‘tkazdi. Masalan, kodeksning “Nanavati” tamoyiliga ko‘ra nochor ahvoldagi kishiga boshpana berish hamda “Melmastiya” tamoyiliga binoan mehmonlarga chuqur hurmat ko‘rsatish uchun hech qanday haq yoki in’omdan umidvor bo‘lmaslik, uyga kelgan barcha katta-kichik mehmonlarga hurmat-e’tibor bilan munosabatda bo‘lish kabi tamoyillari pashtunlar uchun bir qator muammolarni keltirib chiqaradi[12]. Chunonchi, kodeksning “Melmastiya” va “Nanavati” tamoyili 2001-yil 11-sentabr voqealarini uyushtirgan terroristik guruh yetakchisi Usoma bin Lodinga Afg‘onistondan boshpana berilishiga sabab bo‘ldi. Bu esa Afg‘oniston zaminiga AQSh boshchiligida tashqi kuchlarni kirib kelishi hamda o‘sha davrda “Tolibon”ning birinchi hokimiyatini ag‘darilishiga olib keldi[8]. Shu o‘rinda “Geografiya mahkumlari” kitobi muallifi Tim Marshallning qarashlarini bayon etish maqsadga muvofiq: Ma’lumki, Pokiston tomonidan yaratilgan “Tolibon” bir necha yil davomida “Al-Qoida” terroristik guruh jangarilariga afg‘on zaminidan boshpana berib kelgan edi. Natijada, ular Afg‘onistonda AQShga hujm qilish ssenariylarini puxta ishlab chiqdi va 2001-yil 11-sentabrda Amerika Qo‘shma Shtatlardagi egizak binolarni portlatadi. Bunga javoban amerikalik harbiylar “Tolibon” va “Al-Qoida”ni Afg‘onistondagi hukmronligiga nuqta qo‘ydi. “Tolibon”ga qarshi bo‘lgan Shimoliy Alyans kuchlari qulay fursatdan foydalanib mamlakat ustidan nazoratni o‘z qo‘liga oldi. So‘ngra ShAShT (Shimoliy Atlantika Shartnomasi Tashkiloti) tinchlikparvar kuchlari Afg‘onistonga kirib keladi. 11-sentabr voqeasidan keyingi kundan amerikaliklar Pokiston hukumatiga diplomatik bosim o‘tkazishni boshladi. Ular Islomoboddan “Terrorga qarshi urush”da ishtirok etishini va terrorizmni qo‘llab-quvvatlashni to‘xtatishini talab qilishdi. O‘sha paytdagi

AQSh Davlat kotibi Kolin Pauell Prezident Musharrafga (Pokiston Islom Respublikasining o'sha vaqtdagi Prezidentiga) qo'ng'iroq qilib, uni yig'ilishdan chiqib, telefonga javob berishini talab qiladi. Pauell Pokiston rahbariga: "Siz biz bilansiz yoki bizga qarshisiz"[10], deb ta'kidlaydi.

Vashington ushbu voqeani hech qachon tan olmagan bo'lsa-da, Musharraf bu qo'ng'iroqdan so'ng, Pauellning o'rinbosari Richard Armitaj Pokiston idoralararo razvedka xizmati boshlig'iga qo'ng'iroq qilib, "agar biz terrorchilarni qo'llab-quvvatlasak, ular Pokiston zaminini ostin-ustun qilib yuborishi haqida ogohlantiridi", deya ta'kidlaydi. Shundan so'ng, Islomobod go'yoki o'zini Vashingtonning shartlariga ko'ngandek qilib ko'rsatib, ular bilan hamkorlik qiladi. Vaholanki, bu zo'raki aloqalar amalda hech qanday natija bermadi. Hukumat bir necha jangari guruhlar faoliyatiga taqiq qo'ydi, ekstremistik deb topilgan diniy guruhlarini jilovlashga harakat qildi. 2004-yilga kelib, u Shimoli-g'arbiy chegara hududlardagi terroristik guruhlariga qarshi harbiy harakatlar tashkil etdi. Bu Pokiston uchun mushkul qaror edi. Zero, bu rozilik orqali Islomobod 1990-yillarda o'zi yaratgan va do'stona munosabatda bo'lgan "Tolibon" yetakchilariga qarshi chiqishga majbur bo'ldi. Tabiiyki, bu harakatlar "toliblar"ni g'azablantirdi va bunga javoban, mamlakatning ayrim hududlari ustidan nazoratni qo'lga oldi. 50 000 ga yaqin tinch aholi portlashlar va harbiy amaliyotlar oqibatida halok bo'ldi[10].

AQSh rahbarligida ShAShTning Afg'onistondagi harbiy operatsiyasi va Pokistonning chegaradagi sa'y-harakatlari natijasida "Al-Qoida" terroristik guruhining arab, chechen va boshqa xorijlik jangarilari dunyoning turli burchaklariga tarqab ketishdi. Ularning rahbarlari ta'qib qilinib, alaloqibat, yo'q qilindi. Vaholanki, "Tolibon" a'zolarining aksarini Afg'oniston va Pokistonda yashovchi pushtunlar tashkil etganligi sababli ularning o'zga ketar joylari yo'q edi. Shu sababdan ular Amerika va Yevropadan kelgan zamonaviy qurollar va texnologik qurilmalarga ega bo'lgan bosqinchilarga qarata: "Sizlarda soatlar bo'lishi mumkin, ammo vaqt bizniki"[10], degan edi. "Toliblar" xorijiy kuchlar tomonidan qanday zarba berilishidan qat'iy nazar, oxirigacha kutishga tayyor edi, chunki Pokistondagi ayrim kuchlar ularga yordam berib turgan edi. Oradan ma'lum vaqt o'tgach, "Tolibon" to'liq mag'lub etilmaganligi oydinlashdi. Boisi ular Qo'shma Shtatlarning harbiy operatsiyasi boshlanishi bilan mahalliy aholi orasiga qo'shilib ketgan edi. Qulay fursat tug'ilganda, ular qayta jonlana boshladi.

AQSh "toliblar"ga nisbatan "bolg'a va sandon" strategiyasini ishlab chiqishdi. Unga ko'ra, Islomobod "sandon", Vashington "bolg'a" vazifasini o'tashi kerak edi. Shunga qaramay, ular ishongan "sandon", aslida, "bolg'a" zarbidan qochgan "Tolibon"ni "ulkan tuynuk" singari yutib yubordi. Natijada, ko'zlangan maqsadga erishilmadi[10].

Pokistonlik olim Safdar Hussayn doktorlik dissertatsiyasida yozishicha, Pokiston diniy jamiyat hisoblanadi. Unda "Pokistonning toliblashuvi" yoki "Tolibon sindromi" deb ataluvchi "uchta yovuzlik" (radikalizm, terrorizm va fundamentalizm) mavjudligi diniy omilning

ahamiyatini yanada oshiradi. Ayni shu boisdan general P.Musharrafning “ma’rifatli mo’tadillik” g’oyasi jamiki musulmon jamiyatlarida, xususan, Pokiston jamiyatidagi ekstremizm, terrorizm va fundamentalizmga qarshi kurashga qaratilgan edi. P.Musharraf islom dinini noto’g’ri talqin qilganlarni doimiy tanqid qilib, u musulmonlarni ushbu “uch yovuzlik”dan voz kechishga, xatti-harakatlari va fikrlarida mo’tadillikka intilishga undaydi[11]. 2001-yil 11-sentabr voqealaridan so’ng, Afg’oniston Pokiston uchun jiddiy xavfsizlik muammosiga aylandi. Pokiston-Afg’oniston chegarasidagi hududlarda “Al-Qoida”ning mavjudligi Pokistonning xavfsizlik masalalariga xalqaro tus berdi. Kobul Pokistonning xavfsizlik manfaatlariga zid ravishda Hindistonning ishtirokiga yo’l ochdi. Afg’on xavfsizlik kuchlari tomonidan Hindistonga berilgan strategik imkoniyat Pokiston manfaatlariga zid kelmoqda, chunki Hindiston Afg’oniston hududidan Pokistondagi vaziyatni beqarorlashtirish uchun foydalanmoqda, deb ta’kidlaydi Safdar Hussayn va qo’shimcha qiladi: Bu Baluj qo’zg’olon harakatini va Afg’oniston hamda Hindiston maxfiy xizmatlari homiyligida faoliyat yuritayotgan terroristik tashkilot – “Tehrek-e Tolibon Pokiston” (TTP)ni qo’llab-quvvatlash orqali amalga oshirilmoqda[11]. Manbalarda TTPni Afg’onistondagi “Tolibon”dan farqlash uchun “Pokiston Toliboni” deb ham keltiriladi.

2002-yildan buyon Federal ma’muriy qabilalar hududidagi ba’zi qabila guruhlar AQShning Afg’onistondagi harbiy amaliyotlaridan qutulib qolgan “Tolibon” harakati va “Al-Qoida” unsurlarini qo’llab-quvvatlashni boshladi[3]. Pokistonlik olim Ahmed Rashid 2012-yilda nashr etilgan “Pokiston urush arafasida: Amerika, Pokiston va Afg’oniston kelajagi” nomli kitobida yozishicha, Pokistondagi “toliblar” 2005-yildan beri hukumatni ag’darish, armiyani mag’lub etish va islomiy ekstremistik davlat tuzumini o’rnatishni maqsad qilib kelmoqda. Ular shimoli-g’arbdagi katta hududlarni nazorat qilmoqda, mamlakat bo’ylab boshqa ekstremistik guruhlar esa Karachi singari yirik shaharlarda vaziyatni beqarorlashtirish va janubiy Panjobning keng hududlarini nazorat qilishda ularga qo’shilgan. Etnik jihatdan, “Afg’on Toliboni” va “Pokiston Toliboni” harakatlari asosan pashtunlardan tashkil topgan. Ular Afg’onistonda amerikaliklarga va Pokistonda armiyaga qarshi kurashish uchun jangarlarning doimiy kuch manbayi bo’lib xizmat qilmoqda[2].

Asosan “Pokiston Toliboni” nomi bilan ham tanilgan “Tehrik-e Tolibon Pokiston” (TTP)ga 2007-yil 14-dekabrda qishloq imomi Baytulloh Mehsud tomonidan Pokistonning qabilaviy hududlaridagi Deobandiy ta’limotining sunniy mazhabidagi kichik guruhlarini birlashtiruvchi tashkilot sifatida asos solingan. TTPning rahbari Nur Valiy Mehsud hisoblanadi. “Tehrik-e Tolibon Pokiston”ning asosiy maqsadi Pokiston xavfsizlik kuchlariga qarshi hujumlar uyushtirish va Afg’oniston “Toliboni” bilan hamkorlik qilish orqali Pokistonning saylangan hukumatini ag’darish va shariat tuzumini o’rnatishdan iborat[3]. Mazkur guruh siyosatchilar, harbiy va razvedka obyektlari hamda politsiya akademiyalariga hujumlar uyushtirgan. Shuningdek, u

masjidlar, maktablar, mehmonxonalar, istirohat bog‘lari va ibodatxonalarda tinch aholiga – ayollar va bolalarga hujum qilgan[14]. Oqibatda 2008-yil Pokiston hukumati, 2010-yil AQSh, 2011-yil BMT Xavfsizlik Kengashi, Buyuk Britaniya va Kanada TTPni terroristik tashkilot deb e‘lon qildi[2]. Tim Marshallning qayd etishicha, “Tehrik-e Tolibon Pokiston” Afg‘onistondagi “Tolibon”ning Pokistondagi “davomi” hisoblanadi. Ikkalasi ham asosan pashtunlardan iborat bo‘lib, bu xoh XIX asrdagi Britaniya Imperiyasi bo‘lsin, xoh XXI asrdagi panjoblar boshqaruvida bo‘lgan Pokiston armiyasi bo‘lsin, hech biri pashtun bo‘lmagan tashqi kuchning hukmronligini qabul qilmaydi[10]. Shu boisdan TTP Islomobod tomonidan mamlakat xavfsizligiga jiddiy tahdid sifatida baholanadi.

2013-yilda e‘lon qilingan “Pokistondagi iqtisodiy o‘shish va terrorizm o‘rtasidagi sabab-oqibat munosabatlari tahlili” nomli maqolada yozilishicha, “Afg‘oniston bilan chegaradosh Xaybar-Paxtunxva viloyati Pokistondagi deyarli barcha terrorchilik faoliyatlarining manbayi hisoblanadi. AQSh kuchlari boshchiligida Afg‘onistonda “Al-Qoida”ga qarshi olib borilgan harbiy operatsiyalar natijasida Pokiston-Afg‘oniston chegarasi orqali terrorchilarning aniq oqimi kuzatilgan. Aslini olganda, Pokistonnig o‘zi ham so‘nggi 10 yil ichida terrorchilik harakatlari soni jihatidan eng ko‘p zarar ko‘rgan mamlakatlar qatorida”[14]. Vaholanki, so‘nggi 10 yil mobaynida Pokiston xavfsizligiga asosiy tahdid bo‘lib kelgan TTP 2014-yildan beri armiyaning unga qarshi olib borgan operatsiyalari natijasida sezilarli darajada zaiflashgan bo‘lsa-da, bugungi kunda ham xavf tug‘dirishda davom etmoqda[13]. E’tiborli jihati, 2014-yilda Peshovardagi Armiya davlat maktabiga uyushtirilgan hujumda 140 dan ortiq bola halok bo‘lganidan so‘nggina hukumat qurolli isyonga qarshi kurashish uchun o‘zining dastlabki rasmiy asoslaridan biri bo‘lgan Milliy harakat rejasini ishlab chiqdi. Keyinchalik shunga o‘xshash siyosat ishlab chiqilib, amalga oshirildi va yangilab borildi[11].

Pokistonda o‘sha davrda yuzaga kelgan beqaror vaziyat TTPni faollashuviga zamin hozirladi. TTP amaldagi hukumatni amerikaliklarga “qaramlik”da aybladi. Pokiston harbiy kuchlarini g‘aflatda qoldirish maqsadida TTP jangari guruhlar bir vaqtning o‘zida Xaybar-Paxtunxva va Panjob viloyatlaridagi bir qancha aholi yashaydigan tumanlarga kirib bordi. Ular “hokimlar” tayinlab, davlat xizmatchilari va politsiya kuchlarini haydab chiqardi. “Tolibon” Pokiston hukumati nazorati ostidagi hududlarni “dor ul-harb”, ya’ni musulmonlar davlatga qarshi “jihod” qilishlari mumkin bo‘lgan “urush qarorgohi” deb e‘lon qildi va xalq “xohishi”ga ko‘ra shariatni kengaytirishga va’da berdi[16]. Mintaqaga yoyilish xavfi bo‘lgan terroristik guruhlar orasida TTP eng xatarlisi hisoblanadi. Kobul TTP guruhining Afg‘oniston hududida a’zo yig‘ish, tayyorgarlik ko‘rish va mablag‘ to‘plash imkoniyatlarini cheklash orqali uning faoliyatini jilovlashi lozim. “Tolibon” tomonidan qat’iyroq choralar ko‘rilishi, xususan, TTPga ko‘maklashgan shaxslarni qamoqqa olish yoki Afg‘onistondagi TTP rahbarlarini uy qamog‘iga

olish, Pokiston kuchlariga chegaradan o'tuvchi tahdidlarga samaraliroq qarshi kurashish imkonini beradi. Vaholanki, qo'zg'olonga qarshi operatsiyalar muvaffaqiyatga erishishi uchun Islomobod Pokistonning o'zidagi terroristik faoliyatning asl sabablarini ham bartaraf etishi zarur bo'ladi[17].

Pokistonlik olim Safdar Hussayn "Dyurand chizig'i" atroflarida ekstremistik-terroristik guruhlar faoliyatiga baho berar ekan, quyidagilarni alohida qayd etadi: "Ekstremistlar uchun suveren davlatlar chegaralari xayoliy, millat va elat kabi tushunchalar esa nisbiy so'zlardir". Xitoyga qarshi kurashgan jangarilarning taniqli diniy rahnamosi Abu Zar al-Burmiy Janubiy Vaziristonda bu masalalar yuzasidan o'z fikrlarini shunday bayon etgan edi: "Barchamiz shuni anglashimiz kerakki, Pokiston va Xitoy o'rtasida hech qanday chegara mavjud emas... Gilgit-Baltiston mintaqasi bo'ylab o'tgan chegara, aslida, Sharqiy Turkiston bilan chegaradir"[11], deb yozgan S.Hussayn doktorlik dissertatsiyasida shunday xulosa qiladi: "Bu kabi mafkuralar faqat Pokiston-Afg'oniston hududlari bilan chegaralanib qolmaydi, ularning maqsadlari transmilliy va transchegaraviydir"[11]. Xitoy misolida ko'radigan bo'lsak, Pekinning terrorizmga qarshi kurashdagi xavotirlari asosan uyg'ur musulmon jamoalarining faoliyati bilan bog'liq. XXR Sharqiy Turkiston islomiy harakati (ShTIH) va undan ajralib chiqqan Turkiston islom harakati (TIH)ni terroristik tashkilotlar deb biladi. Bundan tashqari, rasmiy Pekin ularni Xitoydagi terroristik, ekstremistik va fundamentalistik kuchlarning asosiy sababchisi deb hisoblaydi. Xitoy rasmiylari uyg'ur jangarilarini xalqaro "jihad tarmog'i"ning bir bo'lagi ekanligini doimiy ta'kidlab keladi. Brayan Spegelning qayd etishicha, ShTIH jangarilari Pokiston-Afg'oniston chegara hududlaridan ta'lim va moliyaviy yordam olmoqda. Bu hududlar "Al-Qoida" bilan ittifoqdosh bo'lgan islomiy jangari guruhlarining tayanch markazi hisoblangan. Pokiston-Afg'oniston chegara hududlarida islomiy jangarilar musulmon uyg'urlarga alohida hurmat ko'rsatishadi. "Tolibon"ning yuqori martabali qo'mondonlaridan biri keskin tarzda shunday so'zlagan edi: "Uyg'urlar biz bilan yashaydi, shunga qaramay ular o'zlarining Xitoydagi burchlari haqida doimo qayg'urishadi. Ular e'tiqodli, taqvodor musulmonlar va eng sara jangchilardir"[11], degan iqtibosni keltirar ekan, S.Husayn 2013-yilda e'lon qilingan Pokiston maxfiy xizmati o'z hisobotlaridan statistik ma'lumotlarni ham yozadi: Pokistonning qabilaviy hududlarida 300 dan 400 gacha ShTIH jangarilarini yashayotgani qayd etilgan. Pokiston-Afg'oniston chegara hududlarida islom fundamentalizmini kuchayishi Islomobodni doim qattiq tashvishga solib kelgan, chunki bu kabi qo'zg'olonlar Pokiston-Xitoy munosabatlariga kuchli putur yetkazishi mumkin.

Pokistonning sobiq Prezidenti Asif Ali Zardoriy mazkur masala to'g'risida so'z yuritir ekan, jangarilar Pokiston va Xitoy o'rtasida "ajratuvchi to'siq" bo'lishi mumkin. Shu xususida Xitoy Xalqaro munosabatlar institutining Janubiy Osiyo bo'yicha eksperti Xu Shisheng "Pokiston va

Afg‘oniston “toliblari” uyg‘urlarga kuchli xayrixohlik bildirishadi, shu sababli biz bu masalaga yanada jiddiyoq e‘tibor qaratishiz shart”[11], deb ta’kidlagan edi.

“Dyurand chizig‘i”dan ShAShT boshchiligidagi kuchlar, “Tolibon” harakati va Afg‘onistonda hujumlar uyushtirgan boshqa ko‘plab isyonchi guruhlar foydalanishgan. Buning bahonasida, Afg‘oniston hukumati g‘arbiy Pokistonda yashiringan jangari guruhlariga qarshi kurashish maqsadida o‘z kuchlarini “Dyurand chizig‘i”dan olib o‘tishini ma’lum qildi. Bunga javoban, Pokiston o‘z chegaralarining har qanday buzilishiga toqat qilmasligini aytib, Afg‘oniston hukumatiga ogohlantirishlar berdi. Keyingi davrlarda, “Dyurand chizig‘i”ni kesib o‘tilganiga doir bir necha muammoli vaziyatlar yuzaga keldi, xususan, “Dyurand chizig‘i”ni nazorat qilish qiyin bo‘lganligi sabab AQSh dron hujumlaridan foydalandi. Bu esa AQSh-Pokiston munosabatlariga kuchli salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Keyinchalik, “Haqqoniy tarmog‘i” tomonidan Afg‘onistonga uyushtirilgan terroristik hujumlar vaziyatni yanada chigallashtirdi, bu hujumlarda AQSh Pokistonni bu vaziyatning bosh sababchisi sifatida aybladi. Bu esa Afg‘oniston va Pokiston o‘rtasidagi munosabatlarni, shuningdek, AQSh-Pokiston aloqalarini yanada yomonlashtirdi[9].

So‘nggi yillarda “Dyurand chizig‘i” atrofidagi vaziyat yanada keskinlashdi. Chunonchi, 2024-yil 24-dekabr kechasi Pokiston harbiy samolyotlari Afg‘onistonning chegaradosh Paktika viloyatining Barmal tumanidagi obyektlarga havo zarbalari berdi. Pokiston vakillari bu joylarni Pokistonda aksariyat terror hujumlarini amalga oshirgan “Tehrik-e Tolibon Pokiston” (TTP) guruhiga aloqador terrorchilarning yashirinish joylari deb hisoblagan. Pokiston tomoni havo zarbalari natijasida 71 nafar terrorchi halok bo‘lganini ta’kidlagan bo‘lsa, Afg‘onistondagi “Tolibon” hukumati 46 kishi, asosan ayollar va bolalar halok bo‘lganini ma’lum qildi. Qurbonlar haqidagi qarama-qarshi ma’lumotlarning to‘g‘riligi hali aniqlanmagan, biroq Birlashgan Millatlar Tashkilotining Afg‘onistondagi missiyasi (UNAMA) “Tolibon” hukumatining tinch aholi, jumladan, ayollar va bolalar qurbon bo‘lgani haqidagi bayonotini tasdiqladi[18]. Natijada, ikki davlat o‘rtasida 2016-yildan buyon sodir etilgan to‘qnashuvlardagi eng katta yo‘qotish yuz berdi. Pokiston tomonining ma’lum qilishicha, u “Tehrek-e Tolibon Pokiston” qurolli guruhining Afg‘onistondagi bazalarini nishonga olgan, shuningdek, Islomobod Afg‘oniston hukumatini ushbu guruhni yashirishda ayblaydi.

Shunga qaramay, Pokiston Afg‘oniston rasmiylari bilan bir necha bor uchrashuvlar o‘tkazdi. Jumladan, TTP hujumi natijasida 16 nafar pokistonlik askar halok bo‘lganidan so‘ng, 2024-yil dekabr oyida Pokistonning maxsus vakili Muhammad Sodiq Afg‘onistonga tashrif buyurdi. Bu lavozimda ikkinchi marta faoliyat yuritayotgan Sodiqning tashrifi paytida Pokiston harbiylari Afg‘onistonning Bermal tumaniga havo hujumlari uyushtirdi. Qurolli guruhlariga boshpana berganini inkor etuvchi Afg‘oniston hukumati ham bu hujumlar oqibatida kamida 46 kishi, shu jumladan, ayollar va bolalar halok bo‘lganini ma’lum qildi. Kobul ham Pokistonga javob

qaytardi[11]. Oqibatda mazkur mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlarda qayta sovuqlashish kuzatildi.

“Tolibon” va Pokiston hukumati o'rtasidagi ziddiyatlar “IShID-Xuroson”ga qarshi kurashishni murakkablashtirdi. “Tolibon” Pokistonga qarshi bo'lgan TTP guruhiga Afg'oniston hududidan foydalanib, Pokistonga hujum qilishga ruxsat berdi. TTPga berilgan erkin harakatlanish imkoniyati “IShID-Xuroson”ga ham “Dyurand chizig'i” bo'ylab siljib, “Tolibon” nazoratidan qochish va Pokistonda hujumlar uyushtirishga yo'l ochib berdi[19]. “Xuroson” – bu o'rta asrlarda Afg'oniston, Turkmaniston, O'zbekiston, Tojikiston, shuningdek, Eronning bir qator mintaqalarini o'z tarkibiga birlashtirgan Arab xalifaligining bir qismi edi. IShIDning rejasiga ko'ra, mazkur “zamonaviy xalifalik” Xuroson tarixiy o'tmishdoshining qudratini tiklashi va ularning mintaqada joylashgan o'rni Afg'oniston bo'lishiga harakat qilishardi. “IShID”ning Afg'on-Pokiston bo'limi mahalliy guruhlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi. “Xuroson islom davlati” (IShID-Xuroson)ning asosini pashtun qabilalari tashkil etadi. Bu Afg'onistonda yashovchi eng katta etnik guruhdir. Uzoq vaqt davomida pashtunlarning katta qismi “Tolibon” harakatini qo'llab-quvvatlagan, ammo pashtunlarning ko'pchiligiga “toliblarni”ning afg'on rasmiylari bilan muloqotga kirishish rejalari yoqmadi va “Islom davlati”ga o'tib ketdi. Ular orasida bir vaqtlar Markaziy Osiyo hukumatlari tomonidan mintaqadan chiqarib yuborilgan “O'zbekiston islomiy harakati” jangarilari ham bor edi[20]. Alohida ta'kidlash joizki, “O'zbekiston islomiy harakati” BMT tomonidan terroristik guruhlar qatoriga kiritilgan. Xususan, BMT Xavfsizlik Kengashining 2001-yil 6-oktabrdagi 1333 (2000)-sonli rezolyutsiyaning 8(c)-bandiga muvofiq, “O'zbekiston islomiy harakati” “Al-Qoida”, Usoma bin Lodin yoki “Tolibon” bilan aloqador deb topilgan. Bu harakat “Al-Qoida”, Usoma bin Lodin va “Tolibon”ni “moliyalashtirish, rejalashtirish, yordamlashish, tayyorlash yoki amalga oshirish kabi harakatlar yoki faoliyatlarida ishtirok etish”, “qurol-yarog' va tegishli materiallarni yetkazib berish, sotish yoki o'tkazish” yoki “boshqa yo'llar bilan qo'llab-quvvatlash” kabilarni amalga oshirgan[21].

Tarixdan ma'lumki, O'zbekistonda ham turli terroristik guruhlar tomonidan teraktlar uyushtirilgan va Afg'oniston bilan chegara hududlarida qaltis vaziyat yuzaga kelgan edi. Bu xususida “Terrorizm ensiklopediyasi” kitobida quyidagi ma'lumotlar keltiriladi: “1999-yildagi Toshkent portlashlari uchun 2000-yil noyabrda Juma Namangoniy sirtidan o'lim jazosiga hukm qilindi. O'sha paytga kelib, u Afg'onistonga qochib ketgani va u yerda Usoma bin Lodinning yaqin hamkori bo'lgani haqida xabarlar tarqalgan edi. 2001-yil noyabrda matbuot manbalari Juma Namangoniyni Afg'onistonning Mozori Sharif shahrida Shimoliy Alyans va “Tolibon” askarlari o'rtasidagi jangda halok bo'lganini ma'lum qildi. Tohir Yo'ldoshev esa 2009-yil oktabrgacha aynan Pokiston-Afg'oniston chegarasidagi yashirin joydan “O'zbekiston islom harakati”ga rahbarlik qilishni davom ettirdi (keyinchalik AQSh dronining hujumi natijasida jismonan yo'q

qilindi)[22]. Shu tufayli rasmiy Toshkent muntazam ravishda xalqaro doiralarda, xossatan, BMT, ShHT, MDH singari xalqaro tashkilotlarning sammitlari, turli konferensiya va anjumanlarda terrorizmga qarshi kurashda hamkorlik qilish dolzarb masala ekanligiga alohida urg'u berib keladi. Binobarin, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Xalqaro terroristik tashkilotlar Afg'onistonni o'zining doimiy makoniga aylantirib olishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi"[23]. Shu boisdan Afg'onistonda doimiy tinchlik va barqarorlik o'rnatilishidan eng ko'p manfaatdor davlat(lardan biri) aynan O'zbekistondir.

Manbalarda "Xuroson-Islom davlati" deb ham ataluvchi "IShID-Xuroson" "Islom davlati"ning (Hozirgi kunda "Iroq va Shom islom davlati" nomi shartli ravishda "Islom davlati" deb ham yuritadi) Afg'onistonda joylashgan bo'linmasidir. Ma'lumotlarga ko'ra, uning tarkibida 2500 dan 4000 tagacha jangari, shu jumladan, chet elliklar ham bor[20]. Ular asosan Afg'onistonning Pokiston bilan chegaradosh bo'lgan Nangarhor va Kunar viloyatlarida to'planishgan. "Xuroson islom davlati" vakillari muntazam ravishda, shu jumladan, Kobulda ham harbiy hujumlar va terrorchilik xurujlarini amalga oshirib kelgan, Afg'onistondagi shialarga ham tez-tez zarba berib turgan. U yerdan Markaziy Osiyoning janubiy chekkalarigacha ancha uzoq tuyulishi mumkin, ammo 2015-yil "Xuroson viloyati" (IShID-Xuroson)ni tuzgan "Islom davlati" (IShID) nafaqat Afg'oniston va Pokistonni, balki Markaziy Osiyo respublikalari hamda Sharqiy Eron hududlarini ham ushbu viloyatning tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqqanini hisobga olish kerak[20]. Bunga bir necha voqealarni misol qilib ko'rsatish mumkin. Masalan, 2024-yil boshida "IShID-Xuroson" Eronga hujum qilganidan so'ng, Tehron Pokistonning beqaror Balujiston viloyatiga raketalar bilan zarba berdi. G'alati tomoni shundaki, Tehron "IShID-Xuroson"ga aloqasi bo'lmagan, Balujistonda faoliyat yurituvchi "Jaysh al-Adl" nomli sunniy jangari guruhni nishonga olganini ta'kidladi. Bunga javoban Pokiston ham Eronga zarba berdi, biroq ikki mamlakat tez orada vaziyatni yumshatishga erishdi[19].

Islomobod shahridagi Ilmiy o'rganish va xavfsizlik tadqiqotlari markazi (CRSS)ning ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil Pokiston uchun so'nggi o'n yil ichidagi eng ko'p qurbon berilgan yil bo'ldi. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, o'tgan yili hujumlar natijasida jami 2526 kishi halok bo'lgan – ularning 700 ga yaqini xavfsizlik xodimlari, 900 dan ortig'i tinch aholi vakillari va taxminan 900 nafari qurollangan jangarilar edi[11]. Binobarin, chegaralarida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha davlat nazorati zaifligi tufayli Afg'oniston global terrorizm ta'minot zanjirining muhim bo'g'iniga aylanib, mintaqaviy va xalqaro tinchlik hamda xavfsizlikka jiddiy tahdid solmoqda. 2025-yil 12-fevralda BMT Xavfsizlik Kengashining Sanksiyalar monitoringi bo'yicha 35-guruh hisobotida Afg'oniston "terrorizm o'chog'i" ekanligi ta'kidlangan. Hisobotning asosiy xulosalariga ko'ra, "Afg'oniston Toliboni" Tehrik-e Tolibon Pokistonga (TTP) moliyaviy va operativ yordam ko'rsatadi hamda TTP Bosh qo'mondoni Nur Valiy Mehsud

esa “Afg‘oniston Toliboni”dan har oy 43 000 dollar oladi. IShID, ShTIH, “Al-Qoida” va “Balujiston ozodlik armiyasi” (BOA) kabi terrorchi va ekstremist tashkilotlar Afg‘onistonda xavfsiz boshpanaga ega, TTP esa Kunar, Nangarhor, Xost va Paktika viloyatlarida yangi o‘quv markazlarini tashkil etmoqda. Pokistonning xavfsizlik borasidagi xavotirlari o‘z tasdig‘ini topgan, chunki TTP atigi 6 oy ichida 600 ta hujumni amalga oshirgan[24].

Pokiston Bosh vaziri Shahboz Sharif qo‘shni mamlakatlarni, jumladan, Afg‘onistonni terrorizmga qarshi kurashish uchun birgalikda strategiya ishlab chiqishga da‘vat etdi. Pokiston davlat televideniyesi xabar berishicha, Sh.Sharif poytaxt Islomobodda terrorizmga qarshi siyosatni amalga oshirishni nazorat qiluvchi hukumat organi – Oliy Qo‘mita yig‘ilishiga raislik qilar ekan, shunday bayon etdi: “Qo‘shni davlatlardan terrorizmga qarshi reja tuzish va uni yo‘q qilish uchun birgalikda harakat qilishni so‘rayman. Umid qilamanki, qo‘shni mamlakatimiz (Afg‘oniston) mening taklifimni jiddiy o‘ylab ko‘radi. Biz, vaziyat qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, chegaraning (“Dyurand chizig‘i”) narigi tomonidan turib boshqarilayotgan terrorizmga hech qachon yo‘l qo‘ymaymiz”[25]. Bu esa o‘z navbatida, terroristik guruhlar faoliyatiga nisbatan Pokiston Islom Respublikasining munosabati va pozitsiyasini namoyon etadi.

Xulosa

Umuman olganda, Afg‘oniston va Pokistonda (qisman) faoliyat yurit(ayot)gan turli ekstremistik va terroristik guruhlarining mavjudligi ikki davlat xavfsizligi, barqarorligi va rivojlanishi yo‘lidagi eng asosiy to‘siqlardan biridir. Terrorizm faqat harbiy yoki kuch ishlatar vositalar bilan emas, balki mafkuraviy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy choralar yordamida ham bartaraf etilishi kerak. Ushbu mamlakatlarda aholi savodxonligini oshirish, diniy maktablar nazoratini kuchaytirish, millatlararo totuvlikni mustahkamlash bu yo‘ldagi asosiy choralar sifatida belgilanishi lozim. Afg‘oniston va Pokiston bugungi global xavfsizlik tizimida markaziy nuqtalardan biriga aylanganini e‘tiborga olib, xavfsizlik va barqarorlikni ta‘minlash maqsadida xalqaro tashkilotlar tomonidan insonparvarlik yordamlarini kuchaytirish, ta‘lim dasturlari sonini oshirish zarur. Zero, Kobul va Islomobod duch kelayotgan terrorizm va ekstremizm tahdidi nafaqat ichki siyosiy muvozanatga, balki butun Markaziy va Janubiy Osiyo xavfsizligiga ta‘sir o‘tkazmoqda. Shu sababli mazkur muammoga qarshi kurashda mintaqaviy hamkorlik, xalqaro koalitsiya, mafkuraviy jihatdan esa tizimli ishlar amalga oshirish bo‘yicha barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Behuria A. (2021) Tehrik-e-Taliban Pakistan: origin, evolution and future portents. – New Delhi.: Manohar Parrikar Institute for defence studies and analyses. – 224 p.
2. Rashid A. (2012) Pakistan on the brink: The Future of America, Pakistan, and Afghanistan. Viking Penguin. – 256 p.

3. Bo‘ronov S. (2025) Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligiga “Tolibon” omilining ta’siri. – T.: “Best-publish”. – 296 b.
4. Бобокулов И. (2021) Афғонистон луғат-маълумотнома. – Т.: «COMPLEX PRINT» нашриёти. – 248 б.
5. Haqqani H. (May 19, 2005) The Ideologies of South Asian Jihadi Groups. Current trends in islamist ideology. Retrieved from <https://www.hudson.org/national-security-defense/the-ideologies-of-south-asian-jihadi-groups>
6. Choudhury N. (2017) The localised madrasas of Afghanistan: their political and governance entanglements. Religion, state and society. Volume 45, 120-140 pp. retrieved from <https://doi.org/10.1080/09637494.2017.1311512>
7. Rubin B. (2013) Afghanistan from the Cold War through the War on Terror. – New York: Oxford University Press. – 504 p.
8. Abdurahmonov O. (2025) Hozirgi Afg‘oniston davlat va jamiyat boshqaruvida pushtunlarning o‘rni. Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Toshkent. – 162 b.
9. Idrees F. (April 25, 2024) Pakistan-Afghanistan relations. Bahria university, Islamabad; Independent. Retrieved from <https://dx.doi.org/10.2139/ssrn.4807211>
10. Marshall T. (2015) Prisoners of Geography. London. Elliott and Thompson Limited. – 304 p.
11. Hussain S. (April 2018) Pakistan’s alliance making with People’s Republic of China from 1990-2010: challenges and counter-measures. Doctor of Philosophy. University of Reading. – 401 p.
12. Abdurahmonov O. (2024) Afg‘oniston davlat va jamiyat boshqaruvida pushtunlar. – Toshkent.: “Donishmand ziyosi”. – 148 b.
13. Afzal M. (2018) Pakistan under siege extremism, society, and the state. Brookings institution press. – Washington, D.C.: – 208 p.
14. Muhammad Shahbaz, Muhammad Shahbaz Shabbir, Muhammad Nasir Malik, Mark Edward Wolters. (September 2013) An analysis of a causal relationship between economic growth and terrorism in Pakistan. Economic Modelling. Volume 35. Retrieved from <https://doi.org/10.1016/j.econmod.2013.06.031>
15. Hussain A. (25 February 2025) Can Pakistan’s new anti-extremism policy defeat rising armed attacks? Aljazeera. Retrieved from <https://www.aljazeera.com/news/2025/2/25/can-pakistans-new-anti-extremism-policy-defeat-rising-armed-attacks>
16. Cohen S. (2011) The Future of Pakistan. – Washington, D.C.: Brookings institution press. – 332 p.

17. The Taliban's neighborhood: regional diplomacy with Afghanistan (30 January 2024) Crisis Group Asia Report N°337. – P.28.

18. Khan A. (January 04, 2025) The TTP and the Pakistan-Afghanistan Conundrum. The Diplomat. Retrieved from <https://thediplomat.com/2025/01/the-ttp-and-the-pakistan-afghanistan-conundrum/>

19. Bacon T. (April 11, 2024) The Islamic State in Khorasan province: exploiting a counterterrorism gap. Center for strategic and international studies. Retrieved from <https://www.csis.org/analysis/islamic-state-khorasan-province-exploiting-counterterrorism-gap>

20. G'oyibnazarov Sh. (2021) Islom terrorizmga qarshi. – Toshkent.: "O'zbekiston" NMIU. – 320 b.

21. Islamic movement of Uzbekistan. The United Nations Security Council. Retrieved from https://main.un.org/securitycouncil/en/sanctions/1267/aq_sanctions_list/summaries/entity/islamic-movement-of-uzbekistan

22. Chalk P. (editor) (2013) Encyclopedia of Terrorism. Library of Congress Cataloging-in-Publication Data. – 871 p.

23. Мирзиёев Ш.М. (2018) Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Т.: Ўзбекистон. – Т.2. – 508 б.

24. Afghanistan supplies weapons to terrorist organizations amid internal problems in the Taliban. (02.03.2025) Situation, Facts and Events. Regional anti-terrorist structure of Shanghai Cooperation Organization. Retrieved from https://ecrats.org/en/security_situation/analysis/16032/

25. Latif A. (20.03.2024) Pakistan urges joint anti-terror efforts with Afghanistan following border clashes. Anadolu Agency. Retrieved from <https://www.aa.com.tr/en/asia-pacific/pakistan-urges-joint-anti-terror-efforts-with-afghanistan-following-border-clashes/3169601>.